

XITOIY TA'LIM SHIORLARINING XITOIY TA'LIM TERMINLARI VA XITOIY TA'LIMIY METAFORALARIDAN LEKSIK-SEMANTIK JIHATDAN FARQLASH



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7335229>

**B.U.Giyosov**

Tashkent State University of Oriental Studies

[giyosovbobur@gmail.com](mailto:giyosovbobur@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ta'lim shiorlari ijtimoiy nutqning bir turi sifatida butun dunyoda keng qo'llaniladigan muhim madaniy hodisadir. Shiorlar Xitoy xalqi hayoti va madaniyatida juda muhim hodisadir. Bu xitoylarning hayoti va tiliga shu qadar chuqur ta'sir qiladiki, uni o'rganish va o'zbek tiliga tarjim qilish kerak. Shior so'zini ifodalash uchun xitoy tilida quyidagi so'z qo'llaniladi: (标语 口号 *biao yu kou hao*). Xitoy tilining nufuzli izohli lug'atida «词海- Ci Hai» (So'zlar dengizi) quyidagi talqin mavjud: «口号 (*kou hao*) - ma'lum maqsadlarga erishish va harakatga undaydigan qisqa va aniq ibora». Shiorlarning lisoniy va uslubiy xususiyatlari hozirgacha ko'plab tadqiqotchilar e'tiborini tortmoqda. Shiorlar til yordamida yaratiladi, shiorlardagi matnlar esa o'z navbatda til mahsulidir. Shiorni lingvistik va stilistik tadqiqot obyekti desak, yaratilgan ko'plab maqolalarning mavjudligi o'z navbatida shiorlarni o'rganilganlik darajasini ko'rsatadi. Ushbu maqolada 1) ta'lim tili va uning tasnifi; 2) ta'lim shiorlarning ta'limiy metafora va ta'lim terminlaridan farqlashning o'ziga xos xususiyatlari; 3) ta'lim shiorlari, ta'lim terminlari va ta'limiy metaforalarning vazifa va maqsadiga ko'ra bir-biridan ajratilishi? kabi masalalrni tahlil etishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim tili, ta'lim shiorlari, ta'limiy metaforalar, ta'lim terminlari.

**Аннотация.** Образовательные лозунги - важный культурный феномен, который широко используется во всем мире как форма социального дискурса. Лозунги - очень важное событие в жизни и культуре китайского народа. Он оказывает такое глубокое влияние на жизнь и язык китайцев, что его необходимо изучить и перевести на узбекский язык. Следующее слово используется в китайском языке для выражения лозунга слова: (标语 口号 *biao yu kou hao*). В авторитетном китайском словаре «词海 - Ci Hai» (Море слов) имеет следующее толкование: «口号 (*kou hao*) = короткая и четкая фраза, побуждающая к достижению определенных целей и действий». Языковые и стилистические особенности лозунгов до сих пор привлекают внимание многих исследователей. Слоганы создаются с помощью языка, а текст в слоганах является продуктом языка. Если мы говорим, что лозунги являются объектом лингвистического и стилистического исследования, то наличие множества созданных статей, в свою очередь, свидетельствует об уровне изучения лозунгов. В данной статье рассматриваются 1) язык обучения и его классификация; 2) особенности различения образовательных лозунгов от образовательных метафор и образовательных терминов; 3) разделение учебных лозунгов, учебных терминов и учебных метафор по задаче и цели? направлены на анализ таких вопросов.

**Ключевые слова:** учебный язык, образовательные лозунги, образовательные метафоры, образовательные термины.

**Annotation.** Educational slogans are an important cultural phenomenon that is widely used around the world as a form of social discourse. Slogans are a very important event in the life and culture of the Chinese people. It has such a profound effect on the life and language of the Chinese that it needs to be studied and translated into Uzbek. The following word is used in Chinese to

*express the word slogan: In the authoritative Chinese dictionary, “Ci Hai” (Sea of Words) has the following interpretation: “slogan is a short and clear phrase that encourages the achievement of certain goals and actions.” The linguistic and stylistic features of the slogans are still attracting the attention of many researchers. Slogans are created using language, and the text in the slogans is a product of language. If we say that slogans are the object of linguistic and stylistic research, the presence of many created articles, in turn, indicates the level of study of slogans. This article discusses 1) language of education and its classification; 2) specific features of distinguishing educational slogans from educational metaphors and educational terms; 3) separation of educational slogans, educational terms and educational metaphors according to the task and purpose? aimed at analyzing such issues.*

**Key words:** *educational language, educational slogans, educational metaphors, educational terms.*

### KIRISH

*Ta’lim shiorlari* 教育口号 [jiàoyù kǒuhào] ta’lim faoliyatida ancha keng tarqalgan va ta’lim tilining asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. Ta’limga oid shiorlar nafaqat siyosiy jabhada, balki ta’lim amaliyotchilari, qolaversa, ta’lim nazariy tadqiqotlarida ham keng foydalaniladigan birikmalar hisoblanadi. Darhaqiqat, *ta’lim shiorlari* ta’lim hodisalarini tasvirlashning til shakli sifatida ta’lim faoliyati bilan shug’ullanuvchi har bir kishiga o’ziga xos tarzda ta’sir etibgina qolmay, balki ta’lim nazariyalarini qurishga ham katta ta’sir qiladi.

Britaniyalik ta’lim faylasufi Sheffter fikriga ko’ra, ta’lim tili asosan uchta shakldan iborat: *ta’lim terminlari* 教育术语 [jiàoyù shùnyǔ], *ta’lim shiorlari* 教育口号 [jiàoyù kǒuhào] va *ta’limiy metaforalar* 教育隐喻 [jiàoyù yǐnyù]. *Ta’lim terminlari* aniq ma’no, bir tizimli va tartibga solingan qoidalariga ega bo’lmog’i kerak; *ta’lim shiorlari*, odatda, tizimli emas va ifodalashda ham qat’iy qoidalarga ega emas, shiorlarni tushunish oson bo’lganligi sababli, ular ko’pincha insonlar tomonidan tez qabul qilinadi va o’qiladi; ta’limiy metaforalar shiorlardan farqli o’laroq belgilangan tarzda ifodalanmay, aksincha solishtirib, qarama-qarshilab yoki o’xshatish orqali ifoda etiladi; [Sheffter 1963:36].

Xitoyshunos olim Yan Ke o’zining “Xitoyning so’nggi o’n yillikdagi shiorlari” nomli maqolasida, shiorlar nafaqat jamiyatdagi islohotlarni, ko’p avlodlar hayoti davomida muayyan ijtimoiy ahamiyatga ega hodisalarni ham aks ettiruvchi hodisa ekanligiga alohida to’xtalib, batafsil buni o’quvchi auditoriyasiga tushuntirgan. [Yan Ke 2010:75].

Shu nuqtai nazardan, hukumat yoki ularni tashkil etuvchi hokimiyat organi va ikkinchi tomondan, ta’lim faoliyati bilan shug’ullanuvchi har bir shaxs o’rtasida ta’lim shiorlar huddi bir ko’prik sifatida xizmat qiladi. Ta’lim tizimida, shiorlarining uchta asosiy manbai mavjud: milliy va mahalliy ta’lim qonunlari va qoidalari, ta’lim boshqaruvi organlari yoki nufuzli muassasalarning, rahbarlarning bayonotida. [Lin Li 2021:28].

*Ta’lim terminlari* 教育术语 [jiàoyù shùnyǔ] asosan, insonlardagi tarbiyaviy hodisalarining umumiy in’ikosi bo’lgan tushuncha va kategoriyalar shaklida namoyon bo’ladi.

*Ta’lim shiorlari* 教育口号 [jiàoyù kǒuhào] asosan insonlarda ma’lum bir vaziyatga nisbatan o’zining matnlarida o’quvchi qalbida emotsional reaksiya uyg’otish, shuningdek, ma’lum bir vaziyat, hodisa yoki voqealikka nisbatan bo’lgan xatti-harakatlarga chaqiruv. Shunday ekan, ma’lum darajada ta’lim shiori o’zida *sentimentalizm, emotsionalizm* 主情主义 [zhǔ qíng zhǔyì] kabi tushunchalarni ifoda etsa, ta’lim terminlari esa o’zida *intellektuallik* 主知主义 [zhǔ zhī zhǔyì] tamoyillarini aks ettiradi deyish mumkin. Birinchisi insonlarning his-tuyg’ulari va hissiyotlariga qarata ma’lum bir reaksiyalar uyg’otadi, ikkinchisi esa, ratsional tahlilga asoslanadi va insonlarga ta’limning bir yoki bir necha jihatlari haqida umumiy tushuncha beradi. Shu boisdan bo’lsa kerak,

ta'lim terminologiyasi vaziyatga qarab emas, balki ijtimoiy sharoitga qarab o'zgaradi, ta'lim shiori esa zamon va vaziyatga qarab o'zgarib turadigan munosabatni qabul qiladi.

*Ta'limiy metaforalar* 教育隐喻 [jiàoyù yǐnyù] yuqoridagilarning uyushmasi bo'lib, ulardan farqli o'laroq metaforalar insonning *idrok etish darajasi* 感知度 [gǎnzhīdù] jarayonida kechadi. Idrok bu ongning ijodiy jarayoni bo'lib, uning yordamida ta'limiy metaforalar matnlarining mavhumlik (*abstrakt*) darajasiga erishish harakati.

Ta'lim shiorining til shakli asosan *o'quv amaliyotchilariga* 教育实践工作者 [jiàoyù shíjiàn gōngzuò zhě] tegishli bo'lib, bu ta'lim shiorlari odatda ma'lum bir siyosiy partiya, hukumat yoki jamiyatda keng qo'llaniladi. Ta'lim terminlari esa *ta'lim nazariyotchilariga* 教育理论工作者 [jiàoyù lǐlùn gōngzuò zhě] tegishli hisoblanadi. Ular tushuncha va kategoriyalardan muammolarni tushuntirish va mavhum bilimlarni ifodalash uchun qo'llaniladi. Tarbiyaviy metaforalar asosan voqelikni ham, ayrim nazariyalarni ham yaxshi biladigan *ta'lim nazariyasi-amaliyotchilariga* 教育理论-实践工作者 [jiàoyù lǐlùn-shíjiàn gōngzuò zhě] tegishli bo'lib, ular ko'pincha analogiya orqali qo'llaniladi.

Turli guruhlarning nutq shakllari turlicha bo'lib, ular o'rtasidagi farqlar mavjud. Ta'lim nazariyotchilari “*sifatli ta'lim*” 素质教育 [sùzhì jiàoyù] shiorini nazariy talqin etishda, uni aslo termin sifatida olishlari mumkin emas.

*Maslan: “ikkinchi sinf”* 第二课堂 [dì èr kètáng] ta'limiy metafora ham nazariy talqin etilsa, bu turdagi metaforalar ta'lim termini sifatida misol qilinmasligi kerak.

*“Ikkinchi sinf”* 第二课堂 [dì èr kètáng] - bu sinfda dars berishdan tashqari o'quvchilar uchun ta'lim ahamiyatiga ega bo'lgan faoliyat va joylarni nazarda tutadi, shuningdek, talabalarning amaliy mehnat qobiliyatini rivojlantiruvchi ijtimoiy amaliyot faoliyatiga ham tegishli. O'qitish mazmuni nuqtai nazaridan, u o'quv materiallaridan kelib chiqadi, lekin yil so'ngida to'quvchidan imtihonlarni talab qilmaydi. [Sheffter 1963:36].

Bu uchlik o'rtasida o'zaro farq bo'lgani kabi, o'zaro o'xshashlik aloqalari ham mavjud bo'lib, ularning uchalasi birgalikda butun ta'lim tilini tashkil qiladi. *Ta'lim shiorlari* 教育口号 [jiàoyù kǒuhào] *emotsional* 主情 [zhǔ qíng], *ta'lim terminlari* 教育术语 [jiàoyù shùnyǔ] *intellektual* 主知 [zhǔ zhī] yoki *ta'limiy metaforalar* 教育隐喻 [jiàoyù yǐnyù] *emotsional-intellektual* 主情-主知 [zhǔ qíng-zhǔ zhī] bo'lsin, ularning barchasi insonda ta'lim haqidagi tushunchasining turli darajalari, jihatlari va shakllarini aks ettiradi.

*Masalan: “Iqtisodiyot rivojlanishi uchun, birinchi navbatda ta'lim karak”*

经济要发展，教育要先行 [jīngjì yào fāzhǎn, jiàoyù yào xiānxíng] shior “*avval ta'lim*” 教育先行 [jiàoyù xiānxíng] degan termin bilan ifodalangan.

Ikkinchi bog'liqlik esa bu uch tushunchaning o'rtasidagi o'zaro o'zgarishlarda yotadi. Ta'lim terminlari, ta'lim shiorlari va ta'limiy metaforalar albatta lingvistik semantikasi o'zgaras degani emas, balki muayyan sharoitlarda semantik jihatdan ular bir-birlari bilan ma'no jihatdan aylantirilishlari ham mumkin.

Ta'lim metaforalarini misol qilib oladigan bo'lsa, metaforalarning uzoq muddatli qo'llanilishi natijasida, ular an'anaviy terminlarga aylanishi ham mumkin, chunki ularning o'rnini bosadigan yanada qat'iy va aniq so'zlar yo'q.

Quyida ta'lim tilining asosiy guruhlari shakllantirilib, ularni guruh-guruhlarga bo'lib va ajratib tasniflangan.



Ta'lim shiorlarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi<sup>1</sup>.

**1. Oddiylik.** 简约性 [jiǎnyuē xìng].

Deyarli barcha ta'lim shiorlarida oddiy va tushunarli jumlarlar qo'llaniladi. Ta'lim shiorlari ma'lum bir vaqt davomidagi jarayon va hodislarga nisbatan yaralgan qisqa va ixsham birikmalardir. Ta'lim shiorlaridagi matn va jumlar oddiyliigi bilan o'quvchi ongida tez esda qolib, o'zida ta'limga bo'lgan targ'ibotni oddiy taqdim etish bilan ifodalaydi.

Masalan: “Ertangi kun quyoshini ushla bilmoq kerak” 为了托起明天的太阳 [wèile tuō qǐ míngtiān de tàiyáng] ta'lim shiorining ma'nosi o'ta chuqur va u bilan bog'liq masalalar ham turlicha. Shiorda ko'plab xabarlar va turli ma'nolar mavjud. Bolalar ertangi kun quyoshidir, kelajakni qanday yaratish ularga bog'liq, ammo bugungi kunda kambag'allik tufayli maktabga bora olmaydigan, o'qiy olmaydigan bolalar ko'pdir. Farzandlar uchun, ertangi kun uchun, insoniyat taraqqiyoti va yurt ravnaqi uchun yordam qo'lingizni cho'zing ma'nosini amglatadi.

<sup>1</sup> 郑金洲, 教育研究与实验, 上海华东师大教育系 邮编: 200062, 分类名称: 教育学, 复印期号: 1998 年 12 期 // Zheng Jinzhou, Ta'lim bo'limi, Sharqiy Xitoy Normal Universiteti, Shanxay Pochta indeksi: 200062, Turkum nomi: Pedagogika, Nusxa soni: 1998-12.



## 2. *Hissiy.* 情绪化 [qíngxù huà].

Shiorlar tushuncha va terminlarning kognitiv ma'nosini istisno etmaydi, balki shiorlarda ularning emotsional ma'nosiga ko'proq e'tibor qaratiladi. Insonlarni harakatga keltirish, ilhomlantirish va psixologik rezonans uyg'otish uchun ba'zan shiorlar bo'rttirilishi ham mumkin.

*Masalan:* “*Qanchalik kambag'al bo'lsangiz ham, ta'limda kambag'al bo'lmaymiz, qanchalik og'ir bo'lmasin, bolalarni azoblay olmaymiz*” 再穷不能穷教育，再苦不能苦孩子 [zài qióng bùnéng qióng jiàoyù, zài kǔ bùnéng kǔ háizi] ta'lim shiori 1970-1980-yillarda bir vaqtlar qishloq ko'chalarida ko'plab edi. Partiya va hukumat barcha qiyinchiliklarni yengib o'tish, ta'limni yaxshi yo'lga qo'yish haqidagi qat'iy ishonchini bu shior o'zida aks ettirgan edi. XXR tashkil topganidan so'ng, ko'plab sohalar qatori ta'lim sohasi ham juda ortda edi. O'tgan asrning 80-yillarigacha XXR ko'pgina hududlaridagi qishloqlardagi boshlang'ich va o'rta maktab binolari hali ham loy devorlar bilan suvalgan edi.

## 3. *Yo'nalinganlik.* 导向性 [dǎoxiàng xìng].

Ta'lim shiorlarida aks etgan ma'no, umuman olganda, aniq bir yo'nalishga ega bo'lib, u ta'lim rivojlanishining asosiy yo'nalishini aniqlaydi va shiorlar shaklida ta'lim rivojlanishining kelajakdagi istiqbollarini tashqi ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ta'lim shiorlari ba'zan juda idealistik bo'ladi.

*Masalan:* “*Ta'lim sotsialistik modernizatsiya harakatiga xizmat qilishi kerak*” 教育必须为社会主义现代化建设服务 [jiàoyù bìxū wèi shèhuì zhǔyì xiàndàihuà jiànshè fúwù] bu ta'lim shior XXR ta'limining mohiyati va rivojlanish istiqbollarini o'zida ifodalaydi. Bunday shiorlar ko'pincha siyosiy partiyalar va hukumatlar tomonidan ilgari suriladi va ta'lim maqsadlari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

## 4. *Qiyamat tendentsiyalariga yo'nalinganligi.*

明显的价值倾向性 [míngxǐǎn de jiàzhí qīngxiàng xìng].

Ta'lim shiorlari uchun muhim narsa obyektiv tavsif emas, balki ma'lum bir qiyamat tendentsiyalarini tegishli til yordamida qanday ifodalashdir. Ko'rinib turibdiki, qiyamat yo'nalishi bo'lmagan faktik tavsiflardan iborat shiorlar mavjud emas. Bunday shior, agar mavjud bo'lsa, uni shior emas, balki termin deb atash kerak. Ta'lim shiorlari ro'lini ikki jihatdan tahlil qilish mumkin. Ulardan biri ta'lim nazariyasining rivojlanishidagi o'rni.

*Masalan:* “*Ta'lim birinchi navbatda turishi kerak*” 教育要先行 [jiàoyù yào xiānxíng] degan qisqa va bor yo'g'i beshta so'zdan tashkil topgan bu jumlada, aslida ta'lim nazariyasi tadqiqotchilarining ta'lim haqidagi g'oyalari va maqsadlarini o'zida aks ettiruvchi ta'lim shioridir.

Bu ta'lim nazariyasi hukumat doirasida uzoq davom etgan qizg'in bahs-munozaralardan so'ng erishilgan konsensusdir. Bu shior ortida ta'limning mohiyati to'g'risidagi “*ta'lim - mahsuldorlik*” 教育是生产力 [jiàoyù shì shēngchǎn lì] va “*iqtisodiy determinizm*” 经济决定论 [jīngjì juéding lùn] kabi tushunchalar mavjud.

Ta'lim shiorlari ro'lining ikki jihati esa bu uning o'quv amaliyotidagi ro'li. Shiorlar o'quvchilarning e'tiborini uyg'otish, ta'lim faoliyati bilan shug'ullanishga chaqiradi. Ota-onalarni OAV orqali o'z farzandlarini kelajaklari uchun ilm olishlariga va sifatli ta'limga olishga bo'lgan targ'ibotda shiorlarning maksimal foydasini ko'rish mumkin.

*Masalan:* “*Kompyuterni ommalashtirish chaqaloqlardan boshlanishi kerak*” 电子计算机要从娃娃抓起 [jìsuànjī pǔjī yào cóng wáwá zhuā qǐ] shiori o'sha vaqtlar butun XXR boshlang'ich sinf o'quvchilari va hatto bog'chalar tarbiyasiga bo'lgan e'tiborni qaratishga majbur qildi va o'quvchilarning kompyuter texnologiyalarining asosiy bilim va ko'nikmalarini egallashiga e'tibor qaratila boshlandi.

Bu shior yigirma yil oldin, o'n oltinchi fevral kuni XXRning bosh raisi Deng Syaopin tomonidan Shanxay shahridagi “*Shanxay ko'rgazma markazida*” bo'lib o'tgan “*o'n yillik fan va*

*texnika yutuqlari ko'rgazmasi*”ga tashrifida u bir qizchani boshini silay so'zlagan nutqidan iqtibos sifatida olingan, keyinchalik uning bu so'zlari boshlanishida aforizmga aylanadi, keyinchalik xalq yuragida kelajak sari bir umid uyg'ota hukumat tomonidan shior sifatida ko'riladi. Bu shior ortidan nafaqat mamlakatda kompyuter ommalashdi, balki axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishiga ham turtki bo'ldi.

#### XULOSA

Shiorlarni tahlil qilib, shunday xulosaga kelindi, shiorlarning lingvistik vositalar (*metaforalar, idiomalar, pretsedent hodisalar*) yordamida ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari ko'rsatilib, og'zaki matn va vizual tasvirlarning uyg'unlashuvi xitoyliklarning voqelikni o'ziga xos tushunishiga xizmat qilgan.

Ta'lim tili asosan uchta shakldan iborat deb hisoblagan: ta'lim terminlari, ta'lim shiorlari va ta'lim metaforalari.

- 1) Ta'lim terminologiyasi akademik til sifatida nisbatan aniq ma'no va aniq qoidalarga ega,
- 2) ta'lim shiorlari aksincha, tizimli emas va ularni ifodalashda qat'iy bir qoida ham mavjud emas. Milliy va mahalliy ta'lim qoidalari va siyosati ta'lim shiorlarining muhim manbai hisoblanadi.
- 3) ta'limiy metaforalar shiorlardan farqli o'laroq belgilangan tarzda ifodalanmay, aksincha solishtirib, qarama-qarshilab yoki o'xshatish orqali ifoda etiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Scheffter, “The Language Education” 1963, p.36. // I. Sheffter, “Ta'lim tili” 1963, 36-b.
2. 林莉, 浙江大学西溪校区教育系 310028, 上海教育科研 2021 年, 28 页。// Linli, Jedziang Universiteti, Shanxay ta'lim va tadqiqot fakulteti 310028, 2021, 28-b.
3. Karimov, A. A. (2022). The Problem of The Grammatical Category of The Chinese Language. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 5, 226-229.
4. Каримов, А. А. (2021). СООТНОШЕНИЕ ПОНЯТИЙНОГО И АССОЦИАТИВНОГО НАЧАЛО В ИЕРОГЛИФИЧЕСКОМ ПИСЬМЕ (на примере иероглифа 日 «солнце»). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 1), 76-81.
5. Каримов А.А. Выявление исконных и приобретенных значений иероглифов 念, 讀, 看 (сравнительный анализ японского и китайского языков). // *Материалы международной конференции по японоведению. Цукуба. Ташкент.*, - 2020.
6. Юсупова Х. Особенности образования существительных при помощи аффиксов с негативным оттенком в современном китайском языке. *American Journal of Social Science and Education Innovations*. ИМПАКТ ФАКТОР: 5.5. (ВАК)
7. Дана, К. А. (2020). ВЛИЯНИЕ ФИЛОСОФИИ УСИН НА ЭТИМОЛОГИЮ И СЕМАНТИКУ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА (НА ПРИМЕРЕ ОТДЕЛЬНЫХ ГРУПП СЛОВ). In *Россия-Китай: история и культура* (pp. 35-40).
8. Nazarova, S. A. (2017). THE ISSUE OF LEXICAL COMPETENCE FORMATION IN THE PROCESS OF TEACHING CHINESE LANGUAGE. In *Актуальные вопросы преподавания китайского и других восточных языков в XXI в.* (pp. 143-147).
9. Akmalovna, S. L. (2020). Attribution model of composition in modern Chinese (On the example of medical terms). *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(4), 3662-3669.
10. Khasanova, F. (2021). ON THE ISSUE OF THE CHRONOLOGY OF THE HISTORY OF THE WAHUA LANGUAGE. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 1), 200-216.
11. МАВЛЯНОВА, У. Х. (2016). ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЯ В СИСТЕМЕ НОВОЙ ПАРАДИГМЫ ЗНАНИЙ. In *Молодежь и XXI век-2016* (pp. 212-215).

12. Zaynitdinovna, A. Z. (2022). Rules for Using the Verb in a 把 “Bǎ” Sentence. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE*, 3(6), 5-9.
13. Badalbayev, D. F. O. G. L. (2021). XITOIY OG ‘ZAKI NUTQIDA KONSTRUKSIYALI BIRIKMALARNING O‘RNI VA XUSUSIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 2), 250-255.